

TRANSPORT VOSITALARINING TEXNIK HOLATI EKSPERTIZASI HUSUSIYATLARI

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Krimanilstik ekspertizalari kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, y.f.b.f.d.(PhD), kapitan*

Sobirov Furqat Bahromboy o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
kunduzgi ta‘lim 2-o‘quv kursi 229-guruh kursanti, safdor*

Zokirjonov Dostonbek Mohidjon o‘g‘li

Annotatsiya: *ushbu maqolada hozirgi kunda amaliyotda qo‘llaniladigan transport vositalarining texnik holati ekspertizasining ishlash tartibi, ishonchli ma‘lumotlar olish va rasmiylashtirishda zamonaviy texnika, usul va uslublar majmuyi haqida ma‘lumotlar kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnik holat, avariya sabablari, vizual tekshiruv, texnik holat va tahlil, texnik jarayon va axborot, texnik oqibat, dinamik ishlash prinsipi.*

Аннотация: *В статье изложены сведения о порядке проведения экспертизы технического состояния транспортных средств, применяемом в настоящее время на практике, комплекс современных приемов, методов и методик получения и выдачи достоверной информации.*

Ключевые слова: *техническое состояние, причины аварии, визуальный осмотр, техническое состояние и анализ, технический процесс и информация, технический результат, динамический принцип работы.*

Annotation: *This article contains information about the procedure for conducting an examination of the technical condition of vehicles currently used in practice, a set of modern techniques, methods and techniques for obtaining and issuing reliable information.*

Key words: *technical condition, accident causes, visual inspection, technical condition and analysis, technical process and information, technical result, dynamic operating principle.*

Kirish

Transport vositalarining texnik holati ekspertizasining hususiyatlari

Transport vositalarining texnik holati ekspertizasi — bu transport vositalarining xavfsiz va samarali ishlashini ta‘minlash, shuningdek, ular tomonidan yuzaga keladigan xavflarni minimallashtirish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy-amaliy ishdir. Ushbu ekspertiza transport vositasining ishlash muddatini, texnik xolatini va xavfsizligini baholashga qaratilgan. Odatda, ekspertiza jarayoni avtotransport vositalarining texnik nosozliklarini aniqlash, ularning konstruksiyasi va

komponentlarining ishlashini tahlil qilish, shuningdek, avariylar va transport hodisalari sabablarini o'rganishga yordam beradi.

Ekspertizaning maqsadlari va vazifalari

Transport vositalarining texnik holati ekspertizasining asosiy maqsadi — avtotransport vositalarining xavfsizligini ta'minlash, ularning optimal ishlashini nazorat qilish va yo'l harakati xavfsizligini oshirishdir. Ekspertiza quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Texnik holatni aniqlash: Transport vositasining ishlashiga ta'sir qiluvchi texnik nosozliklar va buzilishlarni aniqlash.

2. Avtomobilning ishlash muddatini baholash: Transport vositasining eskirishi va xavfsiz ishlash uchun zarur bo'lgan texnik xizmat ko'rsatish muddatini aniqlash.

3. Xavfsizlikni ta'minlash: Avtotransport vositalarining ishlashini baholash va jiddiy xavf tug'diruvchi holatlarni aniqlash.

4. Avariya sabablari: Avtomobilning nosozligi yoki ish holatining yomonlashuvi sababli yuzaga kelgan baxtsizlik yoki avariylar sabablarini aniqlas

Ekspertiza jarayonining asosiy bosqichlari

Transport vositasining texnik holat ekspertizasi bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichda maxsus ilmiy va amaliy yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Vizual tekshiruv: Transport vositasining tashqi ko'rinishi va umumiy holati tekshiriladi. Bu bosqichda avtoamortizatorlar, g'ildiraklar, tormoz tizimi va boshqa muhim qismlar vizual tekshiruvdan o'tadi.

2. Dinamik tekshiruv: Avtomobilning ishlash jarayonidagi dinamik ko'rsatkichlari, masalan, harakatlanish va tormozlash tizimi tekshiriladi. Buning uchun testlar va sinovlar o'tkazilishi mumkin.

3. Texnik diagnostika: Maxsus qurilmalar yordamida transport vositasining dvigatelining, elektron tizimlarning, akkumulyator va boshqa muhim tizimlarning ishlash holati tahlil qilinadi.

4. Hisobot va tahlil: Ekspertiza natijalari to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi va ekspertizaning yakuniy hisobotini tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlar tayyorlanadi.

Texnik holat ekspertizasi va huquqiy jihatla

Transport vositalarining texnik holati ekspertizasi nafaqat amaliy, balki huquqiy jihatdan ham muhimdir. Xavfsizlikni ta'minlash va yo'l harakati qonunlarini buzilishining oldini olish maqsadida, ekspertiza ko'pincha davlat va xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday ekspertiza jarayoni orqali avtomobilning texnik nosozliklar sababli yuzaga keladigan huquqiy muammolarni hal qilish imkoniyati mavjud.

Transport vositasining texnik holati ekspertizasi

Transport vositasining texnik holati ekspertizasi predmeti: yo'l transport

hodisasida ishtirok etgan transport vositasining texnik holati to'g'risidagi faktik ma'lumotlar tashkil qiladi. Yo'l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositalarining texnik holati aniqlanishi lozim bo'lgan asosiy qismlari — bu ularning harakat havfsizligiga ta'sir qiluvchi: tormoz tizimi, rul boshqaruvi, harakat qismi va yoritish tizimidir. Transport vositasining texnikaviy holatini aniqlashning o'ziga xos xususiyati bevosita transport vositasini yoki uning aloxida qismlarini ko'zdan kechirish va tadqiq qilishni talab qiladi. Transport vositasining texnikaviy holatini aniqlashda har doim ham ikkinchi marotaba takrorlash imkoni bo'lmasligi mumkin, chunki ko'p vaziyatlarda birlamchi tadqiqotlar tekshirilayotgan qismning dastlabki holati o'zgarishiga olib keladi.

Transport vositasining texnik holati ekspertizasi ob'ektlari: yo'l transport hodisasida ishtirok etgan avtotransport vositalari, shahar elektromobillari, traktorlar va o'ziyurar mexanizmlar, ularning agregatlari, qismlari, transport vositasining bo'laklari va ulardagi izlardir. Avtotransport vositalarining turlariga ko'ra ob'ektlar quyidagilar bo'lishi mumkin: velosipedlar, motosikllar, yo'lovchi va yuk skuterlari, mahalliy va xorijiy ishlab chiqarilgan avtomobillar, tramvay va trolleybuslar (yo'lovchi va yuk), traktorlar (izli va g'ildirakli), qishloq xo'jaligi mashinalari, havo transporti vositalari, qor avtomobillari, mexanik bo'lmagan transport vositalari va boshqalar. (sud-avtotexnika ekspertizasi ob'ektlariga daryo, dengiz, havo, temir yo'l va quvur transporti turlari kirmaydi).[1]

Shu bilan birgalikda transport vositasini texnik ko'rikdan o'tkazishning alohida tartibi belgilangan:

-Transport vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan (vaqtincha ro'yxatdan o'tkazilgan) hududda yoki egalarining xohishiga ko'ra eksterritoriallik tamoyili asosida boshqa hududlarda ham texnik ko'rikdan o'tkaziladi;

- tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo'lgan (haydovchining o'rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

-ishlab chiqarilganiga olti yildan ko'p bo'lmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari shuningdek, ishlab chiqarilganiga o'n bir yildan o'n to'rt yilgacha (o'n to'rtinchi yili ham) bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari— ikki yilda bir marta;

-tirkamalar texnik ko'rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

-Ishlab chiqarilganiga o'n yilgacha (o'ninchi yili ham) bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari texnik ko'rikdan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladi;[2]

Transport vositasining texnikaviy holatini tekshirish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- yo‘l-transport hodisasidan keyin qisqa vaqt ichida ekspertiza o‘tkazilishi;
- ekspertiza o‘tkazilgunga qadar transport vositasining yo‘l-transport hodisadan keyingi holati o‘zgarishligi. Agar transport vositasi texnikaviy holati ayrim sabablarga ko‘ra o‘zgarsa, bu haqida ekspertga batafsil ma‘lumot berilishi;
- tergov idorasi tomonidan transport vositasini dastlabki ko‘rikdan o‘tkazish vaqtida aniqlangan ma‘lumotlarni ekspert ixtiyoriga taqdim etish;
- yo‘l-transport hodisasi arafasidagi hodisaga aloqasi bo‘lishi mumkin va tergovga ma‘lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida ekspertga ma‘lumot berish;
- transport vositasini alohida qismlarini tadqiq qilishda ularni yechib olish yo‘llari, kiritilgan o‘zgarishlar, xususiyatlari haqidagi ma‘lumotni, fotosuratlarini ekspertga taqdim etish.

Har bir obekt faqat avtotexnika eksperti tomonidan emas, balki boshqa sohadagi ekspert tomonidan ham tadqiqot qilinishi mumkinligini nazarda tutish kerak. Masalan, bitta avtomobil avtotexnika eksperti tomonidan texnikaviy holatini aniqlash bo‘yicha tekshirilishi, izshunos ekspert tomonidan esa, pachoqlar bo‘yicha zarba beruvchi kuch yo‘nalishini aniqlash uchun tadqiq qilinishi mumkin. Shu sababli, yo‘l-transport hodisasi bo‘yicha tergov rejasi tuzilganda, transport vositasini tadqiq etishni birinchi navbatda uning holatiga eng kam o‘zgarish kirituvchi ekspertizani o‘tkazishdan boshlash kerak bo‘ladi.

Yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositasining texnik holatini aniqlash ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etadi:

- transport vositasi va uning alohida qismlarini (tormoz tizimi, rul boshqaruvi va h.k.) texnik holati belgilash (soz yoki nosoz);
- transport vositasining texnik nosozliklarini hosil bo‘lish sabablarini aniqlash;
- transport vositasining texnikaviy nosozliklari yo‘l-transport hodisasiga nisbatan qachon paydo bo‘lganini aniqlash;
- transport vositalardagi nosozlik yo‘lga chiqishdan oldin mavjud bo‘lganligini aniqlash;
- aniqlangan nosozlik transport vositasining umumiy holatiga qanday ta‘sir etishini tadqiq qilish;
- aniqlangan nosozlik hamda kelib chiqqan hodisa o‘rtasida sababiy bog‘lanish bor yoki yo‘qligini aniqlash;
- transport vositasining tadqiq etilayotgan tizimining ishlash ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- transport vositasining turini aniqlash;
- transport vositasining ishlab chiqarilgan yilini aniqlash;
- transport vositasining VIN kodini tadqiq etish (ya‘ni transport vosita

to'g'risida unga ishlab chiqaruvchi korxonadan tomonidan biriktirilgan VIN-raqamdan batafsil ma'lumot olish (ishlab chiqarilgan mamlakat, yili, jixozlanishi va x.k);

– transport vositalari dvigatellarining hajmini aniqlash;

Bunda transport vositalarning turini, ishlab chiqarilgan yilini, ishlab chiqaruvchi korxonadan tomonidan biriktirilgan VIN-raqamdan batafsil ma'lumotlarni aniqlash boshqa turdagi avtotexnik ekspertlari ham xal qilishi mumkin.

Ushbu ekspertizani o'tkazish uchun ekspert ixtiyoriga tekshirilaetgan transport vositasi yoki uning qismi, transport vositasining texnik holati to'g'ridagi ma'lumotlar (texnik ko'rikdan o'tkazilgan dalolatnoma, transport vositasini ta'mirlash haqidagi ma'lumot va h.k.), yo'l transport hodisasidan keyin tuzilgan transport vositasining texnik holati to'g'risidagi bayonnoma taqdim qilinadi.

Agar texnik diagnostikaning vazifasi joriy vaqt ichida ob'ekt texnik holatini aniqlash, texnik prognozning vazifasi esa kelajakda kutiladigan ob'ekt texnik holatini va o'tkaziladigan texnik ta'sir yoki diagnostika davriyligini oldindan aytib berish bo'lsa, texnik genetikaning vazifasi ob'ektning avvalgi vaqtdagi texnik holatini aniqlashdan iborat (masalan, ob'ektning avariya oldi holati).

Texnik holatni prognoz qilish - transport vositasi texnik holatini kelgusi vaqt oralig'i uchun berilgan ehtimollik bilan aniqlash. Prognozda ob'ektning Hozir boshlanadigan holatlari rivojining ehtimoliy yo'llari aniqlanadi.

Transport vositasining zamonaviy rivojlanish bosqichida har bir transport vositasining texnik holatini alohida prognozlash lozim. Eksploatatsiya jarayonida o'tkaziladigan prognozlash har bir transport vositasining o'ziga xos shartlari va eksploatatsiya xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu masalalarning yechimlari transport vositasiga profilaktik xizmat ko'rsatishni rejalashtirish va o'tkazish, yurilgan yo'l bo'yicha emas, real texnik holat bo'yicha qo'llanishi kerak.

Yechish usullari bo'yicha texnik prognoz texnik genetika bilan chambarchas bog'liq. Texnik genetika - bu transport vositasi texnik holatini berilgan ehtimollik bilan o'tgan vaqt intervali uchun aniqlash. Yo'l-transport hodisalarini (YTH) tekshirish, kafolat eksploatatsiyasi davrida yuzaga keladigan buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan da'vogarlik ishlari olib borish yoki tadqiq masalalarini hal qilishda texnik genetikaga zarurat tug'iladi. Bunday hollarda transport vositasining hozirgi vaqtdagi texnik holati bundan birmuncha oldingi, buzilish yoki YTH sabablari vujudga kelishi natijasidagi holatidan farq qiladi.

Diagnostikalash masalalarini echish usullarini prognoz qilish masalalariga mexanik qo'llash mumkin emas. Diagnostikalashda model bo'lib ob'ektning hozirgi vaqtdagi tavsifi xizmat qilsa, prognozda model ob'ektning texnik xarakteristikalari vaqt bo'yicha o'zgarishini tavsiflaydi (masofaning o'zgarishi bilan).

Transport vositasi texnik holatining o'zgarishi jarayonida diagnostikalash natijasi bitta nuqtani ifodalaydi.

Texnik diagnostikalash va bashorat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Davriy (yoki uzluksiz) diagnostikalashning natijalari transport vositasi texnik holatining vaqt davomida o'zgarishini tavsiflaydi (masofaning o'zgarishi bilan) va prognozlash uchun foydalaniladi.

Prognozning vazifasi ob'ekt parametrlarining bo'lajak qiymatlarini berilgan ishonchlik bilan aniqlab, ob'ektning diagnostika o'tkazilganidan keyin erishadigan texnik holatini tavsiflashdan iborat.

Transport vositalari ekspluatatsiya sharoitlarining har xilligi, prognoz ob'ektiga ta'sir etuvchi tasodifiy omillarning borligi tufayli, ob'ekt texnik holatini tavsiflaydigan parametrlar o'zgarishining diagnostikasi tasodifiy xarakterga ega. Bir turli va bir rusumli diagnostikalash ob'ektlarining xususiyatlari har xil tezlik bilan o'zgaradi. Texnik holat parametrlari o'zgarishining tasodifiy xarakteri parametrlar chegaraviy qiymatlariga erishguncha yurilgan yo'llar har xil bo'lishiga olib keladi.

Diagnostika vazifasini bajarishda ikkita yondashish mavjud:

Birinchi yondashish har xil masofalarga taalluqli texnik holat parametrlari qiymatlariga statistik ishlov berish va tahlilga asoslanadi. Bunda parametrlar qiymatlari transport vositalari guruhining ma'lum sharoitlarida (nazorat osti) ekspluatatsiya qilib, to'planadi. Sinovlar natijalari bo'yicha yurilgan yo'l va texnik holat parametrining qandaydir qiymatiga erishish ehtimolligi o'rtasidagi bog'liqlik turini aniqlash mumkin. Bu usulni qo'llaganda ehtimollik nazariyasi matematik apparatidan foydalaniladi.

Ikkinchi yondashish muayyan bashorat obyektining texnik holatini belgilaydigan parametrlar o'zgarishi qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Bu holda parametrlar bevosita o'lchanadi va ob'ekt o'zgarishining tendensiyalari aniqlanadi. Bunday bashoratning asosiy maqsadi - ob'ektning qoldiq resursini aniqlashdan iborat.[3]

Avtotransport vositalarini TXX va ta'mirlash bo'yicha mutaxassislarining asosiy kasbiy kompetensiyalarga quydagilar kiradi:

- avtomobil va transport vositalarining ekspluatatsiyasi paytida yuzaga keladigan jarayonlarning fizik mohiyati, ekspluatatsion xususiyatlari, avtomobil tarkibiy qismlari va asosiy agregatlari modifikatsiyasi, ishlash printsiplari, tuzilishi, texnik xususiyatlari haqida bilimlardan professional faoliyatida foydalanishga tayyorligi;

- avtomobilning agregatlari va mexanizmlaridagi ish jarayonlarini tahlil qilish qobiliyati, avtomobil tarkibiy qismlari, mexanizm va tizimlarining har xil holatdagi nosozliklarini aniqlash qobiliyati;

- transport vositalarining tarkibiy qismlari ularning ish holatini kuzatish, transport vositalarining ekologik ko'rsatgichlarini aniqlash, ekspluatatsiya davomida nosozlik oldini olish usullari va vositalarini qo'llash uchun zamonaviy qurilmalar va

diagnostika tizimlaridan foydalanish qobiliyati;

- texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash barcha turlari bo‘yicha, joriy va kapital ta‘mirlash, avtomobilning asosiy tarkibiy qismlari va mexanizmlarini o‘rnatish va demontaj qilish bo‘yicha bilimlardan foydalanish qobiliyati;

- avtotransport vositasining nosoz qismlarini va detallarini almashtirish yoki ta‘mirlash bo‘yicha maqbul ko‘p mezonli qarorlarni qabul qilish qobiliyati.[4]

Xulosa

Transport vositalarining texnik holati ekspertizasi — transportning xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l harakati hodisalarining oldini olish va samarali ishlashni saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Ekspertiza jarayonlari faqat transport vositasining holatini aniqlash bilan cheklanib qolmasligi, balki uning xavfsizligini ta‘minlash, barqaror ishlashini ko‘rib chiqish hamda huquqiy javobgarlikni aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Transportga xizmat ko‘rsatish tashkiliy jihatdan tez bo‘lishi mumkindir, lekin zamonaviy va sifatli xizmat kafolat bazasi yaratish bo‘yicha yangi hamda samarali dastur lozim.

Zero bu dastur o‘z o‘rnida yo‘l transport hodisalarini oldini olishga, haydovchi, yo‘lovchi va piyodalarga hatar tug‘dirmasligi hamda transport vositalarining himoyalash qobiliyat darajasi va yo‘l harakati ishtirokchilariga yo‘l harakati qoidalarida mavjud barcha amal qilishi zarur bo‘lgan me‘yorlarni yetarli darajada o‘zlashtirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi ” Transport vositalarining texnik holati ekspertizasi”;
2. “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 09.03.2021 yildagi 125-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori;
3. “Transport vositasining texnik holat masalalari” Umid Suvanov 2021;
4. Azimov, A., & Muxtarov, A. (2021). “Avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ishchilarini kompetensiyaviy yondoshuv asosida tayyorlash va malakasini oshirish metodikasi” Academic Research in Educational Sciences;
5. “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, 04.05.2020, PQ-4703-son.